

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(3-hafta)




1-keys. “Islahot — nima o‘zi?”



Vaziyat:

Aziz: “Yangi bino qurilsa — islohot”, — dedi. Sabina: “Qoidalar yaxshilansa ham islohot bo‘ladi”, — dedi. Temur esa: “Odamlar hayotida ijobiy natija ko‘rinsa, islohotning foydasi bilinadi”, — deb fikr bildirdi.



Savollar:

- 1 Uchala fikrning qaysi jihatlari to‘g‘ri?
- 2 Islahotni faqat yangi bino qurish bilan cheklash mumkinmi?
- 3 O‘zgarishning odamlar hayotiga ta‘hiri nima uchun muhim?
- 4 Ta‘lim sohasidagi bir islohotga misol keltiring.

Qiziqarli topshiriq:

“Muammo → o‘zgarish → natija” sxemasi bo‘yicha maktabga oid bitta kichik islohot g‘oyasini yarating.



1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(3-hafta)



2-keys. “Maydoncha bor, bolalar yo‘q”



Vaziyat:

Mahallada zamonaviy sport maydonchasi qurildi. Bir necha oy o‘tgach, u deyarli bo‘sh qolayotgani ma‘lum bo‘ldi. Mahalla faollari: “Loyiha bajarildi”, – deyishdi. Yoshlar esa: “Bizga mos mashg‘ulotlar tashkil etilmagan”, – deb javob berishdi.



Savollar:

- 1 Loyihani to‘liq muvaffaqiyatli deb hisoblash mumkinmi?
- 2 Nega yoshlar maydonchadan foydalanmayotgan bo‘lishi mumkin?
- 3 Muammoni aniqlash uchun kimlarning fikrini o‘rganish kerak?
- 4 Natijani qanday o‘lchash mumkin?

Qiziqarli topshiriq:

Siz yoshlar yetakchisiz: maydonchani faol ishlatish uchun uch bosqichli reja tuzing.

